
“FERGHANA CERAMICS INDUSTRY”; MCHJ KORXONASIDA ISHLAB CHIQARILAYOTGAN MAHSULOTLAR



Quvasoy shahar hokimi To‘rakulov Zafarjon Qodirovich "FERGHANA CERAMICS INDUSTRY" MChJ korxonasiga tashrif buyurdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-99-sonli qarori asosan, “FERGHANA CERAMICS INDUSTRY” MChJ korxonasi ishlab chiqarish jarayonini boshladi.

Shahar hokimi Z.Q.To‘rakulov korxonadagi birinchi bosqichda ko‘p qavatli uylar qurilishida foydalaniladigan “panel devorlar” ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi.

Bundan tashqari, korxonadan ikkinchi bosqichini amalga oshirish uchun 150 ming.dollarlik ko‘p qavatli uylarning ichki devor qismlarini urishda ishlatiladigan (7x40x20) zamonaviy qurilish g‘ishtlari (gipsovых плит) ishlab chiqarish uskunasi olib kelindi va ushbu uskunadan dekabr oyida mahsulot ishlab chiqarish boshlanadi.Korxonada natijada 30 tadan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-03-06 22:20:52